

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 1
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**1-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 1
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.

ELEKTRODINAMIKA FANINI O'QITISHDA MASALALAR YECHISHDAGI MUAMMOLI METODNI TIZIMLI TAHLIL YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH

Sevaraxon Bakirova

Andijon davlat universiteti, doktorant

Azizjon Kurbanov

Andijon davlat universiteti, dotsent

Annotatsiya

Maqolada elektrodinamika bo'limini o'qitishda fizik masalalar asosida muammoli ta'lim metodini takomillashtirish masalasi ko'rib chiqiladi. Elektrodinamika kursi fizik jarayonlarning murakkabligi va matematik ifodalarining ko'pligi sababli talabalar tomonidan qiyin o'zlashtiriladigan bo'limlardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur tadqiqotda elektrodinamika mavzularini o'qitishda muammoli vaziyatlar yaratish va fizik masalalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida analitik tahlil, pedagogik kuzatish hamda taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Taklif etilayotgan metodik yondashuv elektrodinamika bo'limini o'qitishda nazariy bilimlarni mustahkamlash va talabalar mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: elektrodinamika, fizik masala, muammoli ta'lim, fizika o'qitish metodikasi, pedagogik metod, analitik tahlil.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОБЛЕМНОГО МЕТОДА РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЭЛЕКТРОДИНАМИКЕ НА ОСНОВЕ СИСТЕМНОГО АНАЛИЗА

Севарахон Бакирова

Андижанский государственный университет, докторант

Азизжон Курбанов

Андижанский государственный университет, доцент

Аннотация

В статье рассматривается вопрос совершенствования метода проблемного обучения на основе физических задач при преподавании раздела электродинамики. Курс электродинамики является одним из наиболее сложных для усвоения студентами разделов физики из-за сложности физических процессов и большого количества математических выражений. В связи с этим в данном исследовании проанализированы возможности создания проблемных ситуаций и использования физических задач при преподавании тем электродинамики. В процессе исследования использовались методы аналитического анализа, педагогического наблюдения и сравнительного анализа. Предлагаемый методический подход способствует укреплению теоретических знаний и развитию логического мышления студентов при изучении раздела электродинамики.

Ключевые слова: электродинамика, физическая задача, проблемное обучение, методика преподавания физики, педагогический метод, аналитический анализ.

IMPROVING THE PROBLEM-BASED METHOD OF SOLVING PROBLEMS IN ELECTRODYNAMICS TEACHING THROUGH SYSTEM ANALYSIS

Sevaraxon Bakirova

Andijan State University, Doctoral Student

Azizjon Kurbanov

Andijan State University, Associate Professor

Abstract

This article considers the issue of improving the problem-based learning method through the use of physics problems in teaching the electrodynamics section. The electrodynamics course is considered one of the most difficult sections of physics for students to master due to the complexity of physical processes and the large number of mathematical expressions. Therefore, this study analyzes the possibilities of creating problem situations and using physics problems when teaching electrodynamics topics. In the course of the research, methods such as analytical analysis, pedagogical observation, and comparative analysis were used. The proposed methodological approach contributes to strengthening theoretical knowledge and developing students' logical thinking in the study of electrodynamics.

Keywords: electrodynamics, physics problem, problem-based learning, physics teaching methodology, pedagogical method, analytical analysis.

Elektrodinamika fizik fanlarning muhim bo'limlaridan biri bo'lib, elektromagnit hodisalar va ularning qonuniyatlarini o'rganadi. Ushbu bo'lim zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Shu bilan birga, elektrodinamika kursi matematik ifodalarning murakkabligi va fizik tushunchalarning abstraktligi sababli talabalar tomonidan qiyin o'zlashtiriladigan fanlardan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishda nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish uchun turli pedagogik metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Xususan, muammoli ta'lim metodidan foydalanish talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi hamda ularning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi [2]. Fizik masalalar esa nazariy bilimlarni amaliy jihatdan mustahkamlashga yordam beradigan samarali vosita hisoblanadi.

Shu sababli, elektrodinamika bo'limini o'qitishda fizik masalalar asosida muammoli vaziyatlar yaratish muhim metodik ahamiyatga ega. Mazkur maqolada elektrodinamika kursini o'qitishda fizik masalalar asosidagi muammoli metodni qo'llash va uni metodik jihatdan takomillashtirish masalasi ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Elektrodinamika fizikaning murakkab va matematik jihatdan boy bo'limlaridan biri bo'lib, uni samarali o'qitish masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Tadqiqotlarda elektrodinamika mavzularini o'qitishda fizik masalalardan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi [3–5].

Shuningdek, fizika o'qitish metodikasiga oid ilmiy manbalarda muammoli ta'lim metodidan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishi, talabalarda mustaqil fikrlash va muammolarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishi qayd etilgan. Shu sababli, elektrodinamika bo'limini o'qitishda fizik masalalar asosida muammoli vaziyatlar yaratish muhim metodik yondashuvlardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda elektrodinamika bo'limini o'qitish jarayonini tahlil qilish va muammoli ta'lim metodini takomillashtirish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, analitik tahlil metodi yordamida elektrodinamika bo'yicha mavjud o'quv va ilmiy adabiyotlar o'rganildi hamda fizik masalalarning o'quv jarayonidagi ahamiyati tahlil qilindi. Shuningdek, taqqoslash metodi orqali elektrodinamika mavzularini o'qitishda qo'llanilayotgan turli pedagogik yondashuvlar o'rganilib, ularning samaradorligi solishtirildi. Pedagogik tahlil metodi yordamida elektrodinamika bo'limini o'qitishda muammoli vaziyatlar yaratish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Tadqiqot jarayonida muammoli ta'lim metodidan foydalanish orqali elektrodinamika masalalarini o'qitishda talabalar faoliyatini faollashtirish hamda ularning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-masala. Bor modelida vodorod atomida elektron yadro atrofida aylanadi. Klassik elektrodinamika nuqtai nazaridan nurlanish natijasida, nihoyat elektron yadroga tushadi. Vodorod atomining yashash vaqtini baholang.

Yechilishi: Klassik elektrodinamika nuqtai nazaridan tezlanish bilan harakatlanayotgan zaryadlangan


zarracha elektromagnit nurlanish chiqaradi. Shu sababli vodorod atomidagi elektron yadro atrofida aylanganda energiya yo'qotadi va orbitasi asta-sekin kichrayib boradi. Doiraviy orbita bo'ylab aylanayotgan elektronning to'liq energiyasi E va uning vaqt birligidagi nurlanish energiyasi $I = -\frac{dE}{dt}$ bo'lsa biz topmoqchi bo'lgan vaqt τ ni $\frac{E}{-\frac{dE}{dt}}$ nisbat bilan baholash mumkin bo'ladi.

Elektronning to'liq energiyasi kinetik va yadro bilan ta'sirlashuvchi energiyalarining yig'indisidan iborat bo'ladi:

$$E = \frac{mv^2}{2} + F_K * R \quad (1)$$

$$F_K * R = -\frac{e^2}{R^2} * R = -\frac{e^2}{R} \quad (2)$$

Elektron aylana bo'ylab harakat qilgani sababli markazga intilma kuch Kulon kuchiga teng:



$$\frac{mv^2}{R} = \frac{e^2}{R^2} \text{ bundan}$$

$$mv^2 = \frac{e^2}{R} \quad (3)$$

ekanligini topamiz. (2) va (3) ni (1) ga qo'ysak:

$$E = \frac{e^2}{2R} - \frac{e^2}{R} = -\frac{e^2}{2R} \quad (4)$$

elektronning to'la energiyasi kelib chiqadi.

Klassik elektrodinamika bo'yicha tezlanish bilan harakatlanayotgan zaryadlangan zarrachaning nurlanish quvvati **Larmor formulasi** bilan aniqlanadi:

$$I = -\frac{dE}{dt} = \frac{2}{3} \frac{e^2 a^2}{c^3} \quad (5)$$

(5) ifodadan ko'rinadiki, masalani yechish uchun bizga noma'lum kattalik a tezlanishni aniqlash zarur. Tezlanishni quyidagicha ifodalaymiz:

$$a = \frac{F}{m}. \quad (6)$$

(6) ifodadagi kuchni Gauss birliklaridagi Kulon kuchiga tenglashtirib olamiz, chunki bu masalani shartiga ko'ra elektron yadro atrofida aylanmoqda:

$$F = -\frac{e^2}{R^2}, a = \frac{F}{m} = -\frac{e^2}{R^2 m} \quad (7)$$

$$-\frac{dE}{dt} = I = \frac{2}{3} \frac{e^2 e^4}{m^2 R^4 c^3} = \frac{2}{3} \frac{e^6}{m^2 R^4 c^3} \quad (8)$$

Elektronning to'la energiyasi $E = -\frac{e^2}{2R}$ bo'lganligi sababli atomning yashash vaqtini

$$\tau \approx \frac{E}{-\frac{dE}{dt}} \quad (9)$$

nisbat orqali baholash mumkin. (9) ifodaga (4) va (8) ifodalarni qo'ysak va xisoblashni bajarsak:

$$\tau \approx \frac{3m^2 R^3 c^3}{4e^4} \quad (10)$$

ifoda hosil bo'ladi. Klassik nazariyaga ko'ra elektronning radiusi

$$r_0 = \frac{e^2}{mc^2} \quad (11)$$


formula orqali aniqlanadi. (11) ifodani hisobga olib (10) ifodani quyidagicha yozamiz:

$$\tau \approx \frac{3R^3}{4c^4 r_0^2} \quad (12)$$

Elektron energiyasining vaqt bo'yicha o'zgarishini aniqlash orqali atomning yashash vaqtini baholash amalga oshirildi.

2-masala. Massasi m va zaryadi e bo'lgan zarracha tinch turgan ikkinchi zarrachaning oldidan d nishon masofada v tezlik bilan uchib o'tadi. Ikkinchi zarrachaning zaryadi e_2 . Harakatdagi zarrachaning tezligi shunday kattaki, traektoriyasining to'g'ri chiziqdan og'ishini hisobga olmasa ham bo'ladi. Shu zarrachaning nurlanish energiyasini toping.

Yechilishi:



Buning uchun berilgan shart asosida rasm chizamiz.

Rasmga muvofiq

$$r = \sqrt{d^2 + (vt)^2} \quad (1)$$

Zaryadlangan zarracha tezlanish bilan harakat qilganda elektromagnit nurlanish chiqaradi. Yuqoridagi rasmga asosan zaryadning nurlanish energiyasining formulasi

$$I = \frac{2}{3} \frac{e^2}{c^3} \int_{-\infty}^{+\infty} \dot{v}^2 dt \quad (2)$$

bo'ladi. Bu yerda

$$\dot{v} = \frac{F}{m} \quad (3)$$

tezlanish bo'lib, bu boshqa zaryadning Kulon maydoni ta'sirida yuzaga keladi (Gaus birliklar sistemasida):

$$F = \frac{ee_2}{r^2} \quad (4).$$

(3) va (4) ifodalardan foydalansak

$$\dot{v} = \frac{ee_2}{mr^2} \quad (5)$$

ni topamiz. (5) ifodani (2) ifodaga qo'ysak va (1) ni hisobga olsak quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$I = \frac{2}{3} \frac{e^2}{c^3} \left(\frac{ee_2}{m} \right)^2 \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dt}{(d^2 + (vt)^2)^2} \quad (6)$$

(6) ifodadan integralni hisoblaymiz:

$$\int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dt}{(d^2 + (vt)^2)^2}, \quad f(t) = \frac{1}{((vt)^2 + d^2)^2}. \quad (7)$$

Xisoblash uchun (7) ifodadan darajani kamaytirish kerak. Buning uchun belgilashlar kiritamiz: $v^2 =$

$$a, d^2 = b, n = 2.$$

$$\int \frac{1}{(at^2+b)^n} dt = \frac{2n-3}{2b(n-1)} \int \frac{1}{(at^2+b)^{n-1}} dt + \frac{t}{2b(n-1)(at^2+b)^{n-1}} \quad (8)$$

$n=2$ bo'lganida

$$\frac{t}{2d^2+((vt)^2+d^2)} + \frac{1}{2d^2} \int \frac{1}{v^2t^2+d^2} \quad (9);$$

Chegaralarda $t \rightarrow \pm\infty$ bo'lganda $\frac{t}{2d^2+((vt)^2+d^2)} \rightarrow 0$ bo'ladi. Shuning uchun faqat birinchi integral qoladi.

Ya'ni, $\frac{1}{2d^2} \int \frac{1}{v^2t^2+d^2}$ ni hisoblaymiz. Buning uchun yana belgilashlar kiritamiz: $u = \frac{vt}{d}$ bundan

$$du = \frac{v}{d} dt \quad (10),$$

$$vt = ud \quad (11),$$

$$\frac{1}{2d^2} \int \frac{1}{v^2t^2+d^2} dt = \frac{1}{2d^2} \int \frac{d}{v(d^2u^2+d^2)} du = \frac{1}{2d^2} \int \frac{d}{vd^2(u^2+1)} du = \frac{1}{2vd^3} \int \frac{1}{u^2+1} du \quad (12)$$

$$\int \frac{1}{u^2+1} du = \arctan(u), \quad \frac{1}{2vd^3} \int \frac{1}{u^2+1} du = \frac{\arctan(u)}{2vd^3} \quad (13)$$

$u = \frac{vt}{d}$ ga ko'ra $\frac{\arctan(\frac{vt}{d})}{2vd^3}$ (9) ifoda quyidagi ko'rinishni oldi:

$$\int \frac{1}{(v^2t^2+d^2)^2} dt = \frac{\arctan(\frac{vt}{d})}{2d^3v} + c. \quad (14)$$

Endi chegarani qo'yib integrallaymiz:

$$\int_{-\infty}^{+\infty} f(t) dt = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{\arctan(\frac{vt}{d})}{2d^3v} = \frac{\pi}{2d^3v}. \quad (15)$$

Bu ifodani (6) ifodaga olib borib qo'ysak:

$$I = \frac{2}{3} \frac{e^2}{c^3} \left(\frac{ee_2}{m}\right)^2 * \frac{\pi}{2d^3v} = \frac{1}{3} \frac{\pi e^4 e_2^2}{c^3 d^3 m^2 v} \quad (16)$$

kelib chiqadi. Demak javob $I = \frac{1}{3} \frac{\pi e^4 e_2^2}{c^3 d^3 m^2 v}$ ekan.

XULOSA

Elektrodinamika bo'limini o'qitishda fizik masalalar asosida muammoli ta'lim metodidan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o'quv jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish orqali talabalarning mantiqiy va tahliliy fikrlashini rivojlantiradi hamda ularning mustaqil ravishda masala yechish ko'nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, elektrodinamika mavzularini o'qitishda fizik masalalardan samarali foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kurbanov A.O. "Elektrodinamika" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Andijon: Andijon davlat universiteti, 2025. – 156 b.
2. Abdumalikov A.A. Elektrodinamika. – Toshkent: Cho'lpon, 2011. – 344 b.
3. Maggiore M. A Modern Introduction to Classical Electrodynamics. – Oxford: Oxford University Press, 2023. – 436 p.
4. Griffiths D.J. Introduction to Electrodynamics. – Boston: Pearson Education, 2013. – 613 p.
5. Топтыгин И.Н. Современная электродинамика. – Москва–Ижевск, 2002. – 736 с.
6. Ландау Л.Д., Лифшиц Е.М. Теория поля. – 8-е изд., стер. – Москва: Физматлит, 2006. – 534 с.
7. Ландау Л.Д., Лифшиц Е.М. Электродинамика сплошных сред. – 4-е изд., стер. – Москва: Физматлит, 2003. – 656 с.